

**SPORT MAKTABLARIDA MASHGULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH  
VA ÒTKAZISH USLUBLARI.**

*Xomidjonova Feruza Komiljon qizi*

*Jismoniy madaniyat kafedra mudiri dotsent*

*Jabborova Aziza Mòmin qizi*

*Shahrisabz Davlat Instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Yosh sportchilarni yanada professional tayyorlashda yangidan chiqarilgan qarorlar , sifatli sport anjomlaridan foydalanishlariga bòlgan e'tibor va sportchilarni jahon arenalariga olib chiqishdagi tòxtovsiz harakat va urinishlar haqida gaplashamiz.

**Kalit sòzlar:** natija, jahon musobaqalari, erishilgan yutuqlar, sport maktablarining paydo bòlish sabablari , yosh sportchilar , mashg'ulot va musobaqalarni tashkillashtirish rejalari.

Mamlakatimizda O'zbekiston sharafini jahon sport maydonlari — Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida, boshqa xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilishga qodir bo'lgan xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlash bo'yicha samarali tizimni yaratish, buning uchun xalqaro standartlarga javob beradigan, zamonaviy sport uskunalari bilan jihozlangan o'quv-mashq bazalarini shakllantirish, sportchilarni tayyorlash jarayoniga eng yangi ilmiy-metodik texnologiyalarni egallagan yuqori malakali murabbiy-o'qituvchi kadrlarni keng jalb qilish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining 2016 — 2020-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin. Sport maktablari — yuqori malakali sportchilarni tayyorlaydigan ixtisoslashgan o'quv-tarbiya muassasasi. O'zbekistonda Sport maktablarining 3 asosiy turi mavjud: bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar va o'smirlar ixtisoslashgan olimpiya maktablari hamda oliy sport mahorati maktablari. Sm. Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilot hamda idoralar qoshida tuzilgan. Toshkentda dastlabki Sm. 1934-yil ochilgan. Uzoq, yillar davomida Toshkent, Samarqand, Andijon, Chirchiq sh.larida sport internatlari (hozir olimpiya o'rinbosarlari kollejlari) faoliyat ko'rsatib keldi va respublika terma jamoalari uchun ko'p minglab iqtidorli sportchilarni tayyorlab berdi. Ular orasida yuzlab xalqaro sport musobaqalarining sovrindorlari bor. O'zRda 570 dan ortiq har xil turdagi Sm. faoliyat ko'rsatadi (2004). Oliy mahorat sport maktablari faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar

belgilansin:zarur sport anjomlari va uskunalari bilan jihozlangan, zamonaviy xalqaro talablar va standartlarga javob beradigan moddiy-texnik hamda o‘quv-mashg‘ulot bazalarini yaratish va turli darajadagi xalqaro musobaqalarda — jahon va Osiyo chempionatlari, Olimpiya va Osiyo o‘yinlari, Universiadalar hamda boshqa xalqaro va mintaqaviy musobaqalarda O‘zbekistonning sharafini munosib himoya qilishga qodir bo‘lgan xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlashda ushbu bazalardan samarali foydalanishdir.

Mustaqillikka erishibmizki , sport bòlgan e'tibor yanada kuchayib bormoqda va unga doir qarorlar chiqarilib albatta , yosh sportchilarni qòllab quvvatlash maqsadida sport ixtisoslashtirilgan maktablar ochilishi ham yòlga qòyilib kelinmoqda. Shubhasiz , yoshlarimiz ham bu kabi e'tibor va shart-sharoitlarni javobsiz qoldirishayotgani yòq . Ular ham qòllaridan kelgancha turli xil sport turlari bòyicha yurtimiz bayrođini jahon davlatlari bayrođidan yuqoriroq kòtarishga harakat qilib va katta katta natijalar kòrsatib kelishmoqda. Yurtboshimiz ham kabi natijalardan faxr his qilgan holda , ularning natijalariga kòra , ularni rađbatlantirishni ham unutib qòyayotganlari yòq. Ularga qimmatbaho sovg‘alar , mashina hamda uy -joylar sovg‘a qilmoqdalar. Bu kabi sovg‘alar va maqtovlarga sportchilarimiz , albatta , mos va munosibdir. Mavzudan chetga chiqmagan holda sport maktablari va u kabi maktablarda mashg‘ulotlarni uyushtirish va uni amalga oshirish haqida suhbatlashsak. Sportga ixtisoslashtirilgan maktablarda mashg‘ulotlarni tògri , samarali va tòxtovsiz olib berish uchun avvalo, profrssional murabbiylarni biriktirish , ushbu murabbiylar ham òsha sport turi bòyicha kamida besh yoki olti mobaynida shu sport turida faoliyat olib borganligi darkor. Chunki professional murabbiygina yosh sportchilarni proffesional tarzda , sabr -toqat bilan tarbiyalashi va ulkan yutuqlarga erishishlariga sababchi bòlishi mumkin. Sportchilar ham albatta , tezda ulkan natijalarga erisha olishmaydi , buning uchun tòxtovsiz harakat , trenirovka mashg‘ulotlarini kanda qilmasdan qatnashishlari muhim ahamiyatga ega. Sport maktablarida mashg‘ulotlatni tashkil etishdagi ikkinchi asosiy masala bu sport zallarini zaruriy sport anjom , uskunalari bilan jihozlashdan iboratdir. Har bir sportchi , albatta , trenivorka qilish mobaynida kerakli anjomlar zarur. Mutasaddilar tomonidan maktablarga ular yetkazib berilsa yosh sportchilar boshlanish mashg‘ulotlaridanoq yaxshi natijalar kòrsata boshlashadi. Sport maktablaridagi yuqoridagi talablar ta'minlangandan sòng asosiysi mashg‘ulotlarni tògri rejalashtirib borilishi , ya'ni mashg‘ulot vaqt va joylari mutaxasislar sportchilarning murabbiylari tomonidan maslahatlashgan holda tuzib borishlari zarur. Boshqacha qilib aytganda , sportchilar yil boshidanoq òzlariga ya'ni yosh jihatidan tògri kelgan holda , dars va mashg‘ulot soatlari taqsimlanishi va mashg‘ulotlar davomida albatta, murabbiylar bilan birga kòproq vaqt òtkazib ustozlaridan òzlari qiziqtirgan savollarga javob olishlari maqsadga muvofiq bòladi. Yosh sportchilarda ham shug‘ullanayotgan sport turi bòyicha yetarlicha qiziqish bòlsagina biror natijaga erishishlari mumkin. Maktab jadvallari ,

albatta , har oyda yosh sportchilarning mashg'ulotdagina ishtiroki , natijalariga kora , o'zgarib turilishi zarur. Ya'ni aytmoqchimanki , mashg'ulotlarda ishtiroki pastroq yoki o'zlashtirishi sustroq sportchilarini mashg'ulot soatlarini yanada kopyatirish va ularni bir jamoaga yig'ib ular bilan iloji boricha individual shug'ullanib borish , kerakli maslahat va yol-yoriqlarni korsatib borish ham faqatgina ularning ulkan yutuqlarga erishishlari uchungina harakatdir. Xulosa qilib aytadigan bolsam , sportga ixtisoslashtirilgan barcha maktablarda avvalo, yosh sportchilarni ulkan zafarlarga erishishlarini ta'minlash uchun mashg'ulotlarni to'g'ri va ularga mos ravishda tashkillashtirish maqsadga muvofiq. Professional murabbiy va ustozlar tanlay bilish qanchalik zarur bolsa maktablarni zaruriy anjomlar bilan ta'minlash ham shunchalik muhim ahamiyatga ega. Shunchalik tayyorgarliklardan song , sportchilardan faqatgina ulkan zafarlarga erishishlari uchun kuchli ishtiyoq va kuch , g'ayrat talab etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. S. Usmonxojayev , O. Tursunov Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Maruzalar matni - Toshkent , 2002
2. " Trenerlik metodikasi" fanidan namunali o'quv dasturi , - Toshkent , 2011
3. . K. M. Mahkamjonov , X. B. Tulenova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. "O'qituvchi" , 2004